



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



No5(1)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 386 sahifa,  
1-may, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### EDITORIAL BOARD MEMBERS:

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun**

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

**Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor**

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

Maktabgacha ta'lim tashkiloti metodistining boshqaruv funksiyalari.....	10
<i>Qarshibayeva Dilfuza Xidirbayevna</i>	
Texnologik mashinalar va jihozlar ta'lim yo'nalishi talabalarida kasbiy kompetensiyani shakllantirishning pedagogik qonuniyatlari va metodologik tizimini ishlab chiqish .....	15
<i>Elmanov Abbas Begmat o'g'li, Mirzaumidov Asilbek Shuxratjonovich</i>	
Katta yoshdagi guruh bolalarida o'z-o'zini boshqarish qobiliyatini rivojlantirishda o'yinning roli .....	19
<i>Ergasheva Farangiz Umidjon qizi, Fayzullayev Sharipboy Nurillayevich</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ekologik tafakkurni rivojlantirishning dolzarbligi.....	23
<i>Yaxshiboyeva Nargiza Rustamqulovna</i>	
Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida inson resurslarini boshqarishda muvozanatlashgan ko'rsatkichlar tizimidan foydalanishning nazariy asoslari .....	28
<i>Gulmira Jumanova</i>	
Nomoddiy madaniy merosning talaba-yoshlarni yuksak ma'naviyatli shaxs sifatida tarbiyalashdagi ahamiyati .....	33
<i>Erboyev Suxrob Abdusalomovich</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar va ularda hissiy-irodaning shakllanishi .....	37
<i>Davlatova Zebo Haydarovna</i>	
Zamonaviy oilada avlodlararo munosabatlarning pedagogik-psixologik xususiyatlari .....	40
<i>Ochilova Farida Baxriddinovna</i>	
Maktab va oliy ta'lim muassasalarida qizlar kitobxonligini rivojlantirish metodlari .....	44
<i>Qo'chqarova Oysha Oltibayevna</i>	
Buyuk allomalar merosidan foydalanishning metodik holati va mavjud muammolari.....	48
<i>Sevara Mamatkarimova</i>	
Futbol o'yinida to'pga kalla bilan zarba berish.....	53
<i>Xolmaxmatov Boburjon Musurmon o'g'li</i>	
Использование современных инновационных методов в процессе обучения русскому языку в иноязычных группах высшего образовательного учреждения.....	56
<i>Курбанова Шаира Исмаиловна</i>	
Maktabgacha ta'lim mutaxassislarini tayyorlashda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish ...	60
<i>Kushakova Gulnora Egamkulovna, Muhammadiyeva Shaxzoda Sunnatilla qizi</i>	
Boshlang'ich sinflarda musiqa mashg'ulotlari orqali o'quvchilarning kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish metodlari .....	63
<i>Muminova Feruza Farxodovna</i>	
Alisher Navoiy merosining yoshlar ma'naviy-estetik tarbiyasidagi ahamiyati .....	70
<i>Qayumxo'jayev Botirxo'ja Ikromxo'ja o'g'li</i>	
Boshlang'ich ta'lim jarayonida amaliy topshiriqlar orqali tayanch kompetensiyalarni shakllantirish metodikasini takomillashtirish .....	74
<i>Saidova Dilnoza Maripovna</i>	
К вопросу о классификации современной антиутопии.....	78
<i>Дмитрий Валерьевич Пупонин</i>	
Когнитивная гибкость как фактор психологического благополучия старшеклассников в период адаптации к новым образовательным требованиям .....	82
<i>Муксинова Динора Азаматовна</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilida ta'lim beruvchi professor-o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini baholash: xalqaro tajribalar qiyosiy tahlili va O'zbekiston amaliyoti .....	87
<i>Baxtiyarova Muniba Ne'matjon qizi</i>	
Valeologik tarbiya asosida maktabgacha ta'lim tarbiyachilarini tayyorlashda innovatsion va raqamli yondashuvlar .....	92
<i>Berkinova Charos Islomovna</i>	



Grammatik tushunchalarni o'rgatish metodikasi.....	96
<b>N. R. Masharipova</b>	
Umumiy o'rta ta'lim tizimini takomillashtirish va o'quvchilar bilimini baholashda xorijiy tajribalardan foydalanish finlyandiya ta'lim tizimi misolida.....	99
<b>Obidova Muqaddas Ro'ziqulovna</b>	
The Difference Between Androgogy and Pedagogy.....	106
<b>Pardayeva Aziza Rahmatillojevna</b>	
Elektr mashinalari fanini o'qitishda raqamli ta'lim texnologiyalari.....	110
<b>Shodiyeva Nozina Shuxrat qizi</b>	
Umumta'lim maktablarida direktor o'rinbosarlarining aksiologik yondashuv asosida boshqaruv funksiyalari va vakolatlari hamda maktablarda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish yo'llari.....	113
<b>Toxirov Botirjon G'ofurjon o'g'li</b>	
Ispan tili darslarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirish usullari .....	119
<b>Tursunqulov Sanjar Dilmurod o'g'li, Shukurullayeva Feruza Dilmurodovna</b>	
Surxondaryo viloyatida yetishtiriladigan ingichka tolali paxta navlarining qo'llanilishi .....	124
<b>Ubaydullayeva Komila Bozor qizi</b>	
Bo'lajak tarbiyachilarda empatiya hissini shakllantirishning nazariy asosi .....	127
<b>Xolmirzayeva Gulbahor Bahodirovna</b>	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi .....	130
<b>Raximova Dilshoda Xoliqberdiyevna</b>	
Bo'lajak sport murabbiylarida kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish mexanizmlari .....	134
<b>Sherzod Shuxratovich Boboyorov</b>	
Oliy ta'lim muassasalarida talabalar sportini rivojlantirishning iqtisodiy va tashkiliy mexanizmlari.....	138
<b>Sangirov Nuriddin Iriskulovich</b>	
Bo'lajak o'qituvchilarning boshqaruv kompetentligini rivojlantirishning integrativ modeli .....	142
<b>Rasulova Umida Bahodir qizi</b>	
Yashil pedagogikaning konseptual modeli va tamoyillari.....	146
<b>Raxmatova Dilnoza Abdurashidovna</b>	
Ta'lim jarayoni ishtirokchilarida emotsional barqarorlikni shakllantirishning pedagogik-psixologik asoslari ..	149
<b>Boymatova Munavvar Ravshan qizi</b>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda zamonaviy raqamli platformalardan foydalanish samaradorligi.....	152
<b>Lukmonova Salomat Gafurovna</b>	
Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun pedagogik qo'llab-quvvatlash tizimining shakl, metod va vositalari .....	157
<b>Farmonova Madina Bahriddin qizi</b>	
Innovatsion boshqaruv tizimlarida qaror qabul qilish va kommunikatsiya samaradorligi .....	161
<b>Sotvoldiyeva Xurliqo G'ayratjon qizi</b>	
Raqamli ta'lim muhitida maktabgacha yoshdagi bolalarning media savodxonligini shakllantirish metodikasi.....	167
<b>Choriyeva Xurmo Panji qizi</b>	
Maktabgacha ta'lim mutaxassislari malakasini oshirish tizimining zamonaviy tendensiyalari va raqamlashtirish jarayonlarining pedagogik ahamiyati.....	172
<b>Qosimova Sh. N., Dusmaxamedov A. A.</b>	
Maktab o'quvchilarida o'zini o'zi tarbiyalashni shakllantirishning pedagogik asoslari (8–9-sinflar asosida)..	177
<b>Norxo'jayeva Lobar Nuriddin qizi</b>	
STEAM loyihalar yordamida boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy va tanqidiy tafakkurni shakllantirish .....	181
<b>Mirjamolova Moxira Abdugaffor qizi</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning pedagogik ahamiyati va metodik asoslari.....	188
<b>Axmad Bolqiyev</b>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini xalqaro baholash dasturlari asosida baholashning pedagogik asoslari.....	191
<a href="#">Shavqiddin Burxonov</a>	
Boshlang'ich ta'limda liderlik va pedagogik menejment muammolari.....	194
<a href="#">Pardaboyev Doston</a>	
Raqamli ta'lim muhiti: tushunchasi, strukturasi va rivojlanish tendensiyalari.....	197
<a href="#">Kulboyeva Dilnoza Abdug'afurovna</a>	
Особенности применения графических органайзеров на практических занятиях по дисциплине “Практикум литературы народов СНГ”.....	199
<a href="#">Татьяна Викторовна Половинкина</a>	
Historical Stages in the Study and Treatment of Scoliosis (Spinal Curvature).....	204
<a href="#">Shermatova Mokhira Baxodir qizi</a>	
Talaba qizlarga badiiy gimnastika cho'qmori yordamida bajariladigan fundamental mashqlarni o'rgatish....	209
<a href="#">Musharafxon Sultanova</a>	
Oliy ta'limda tarbiyaviy ishlarni tashkil etish bo'yicha xalqaro modellarning qiyosiy tahlili.....	213
<a href="#">Ziyotova Madina</a>	
Sport mutaxassislarini tayyorlashda voleybol o'qituvchisining ko'nikmalari va uslubi .....	216
<a href="#">Turg'unov Baxtiyor O'rolovich</a>	
Matematik masalalarni yechish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy fikrlash va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish .....	220
<a href="#">Yusupova Latofat Nuriddinovna</a>	
Zamonaviy sharoitda bo'lajak o'qituvchilarda deontologik kompetentlikni rivojlantirishning innovatsion texnologiyalari .....	228
<a href="#">Nasirova Nigora Baxtiyor qizi</a>	
Paraengil atletika mashg'ulotlarida individual yondashuvning ahamiyati .....	233
<a href="#">Abduxoliqova Shoiraxon Akramjon qizi</a>	
Biologiya fanini o'qitishda xalq pedagogikasi elementlaridan foydalanish orqali ekologik madaniyatni rivojlantirish.....	239
<a href="#">Baxrombekova Sojidxon Sherzodjon qizi</a>	
Maktab texnologik ta'limida axborot texnologiyalaridan foydalanishning o'quv samaradorligiga ta'siri: o'rta muddatli istiqbollar (2027–2031) .....	245
<a href="#">Berdiyeva Gulnoza Rizoqulovna, Tursunov Sherzod Ziyat o'g'li, Ismatullayev Javohir Ubaydulla o'g'li</a>	
Axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali jismoniy tarbiya va sport tizimini boshqarish samaradorligini oshirish .....	251
<a href="#">Eryigitov Dilshod Xolboyevich</a>	
Enhancing Speaking Skills Productively in English.....	255
<a href="#">J. M. Fayzullayev, G. R. Elmonova</a>	
Nutqida nuqsoni bo'lgan katta guruh bolalari bilan ishlashning ilmiy-nazariy asoslari .....	259
<a href="#">Jumanova Iroda Nomozovna, Fayzullayev Sharipboy Nurillayevich</a>	
2–3 yoshli bolalarning maktabgacha ta'lim tashkilotiga ijtimoiy moslashuvi: nazariy va empirik tahlil .....	263
<a href="#">Klicheva Dilnoza Zulfon qizi</a>	
Inson–texnika tizimida ta'lim olayotgan talabalarda iste'dod namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari.....	267
<a href="#">Kuvandikova Gulnora Gulamovna</a>	
Bo'lajak pedagoglarning mutaxassis sifatida shakllanishida xavotirlanish holatining namoyon bo'lishi.....	270
<a href="#">Nuriddinov Rasuljon Samitjon o'g'li</a>	
Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni maktabga tayyorlashda zamonaviy psixologik-pedagogik yondashuv.....	274
<a href="#">Nuriddinova Maysara Ikramovna, Kodirova Albina Faridovna</a>	
Talabalarda qaror qabul qilishning pedagogik-psixologik xususiyatlari .....	279
<a href="#">Rajabova Go'zal Zarifovna</a>	
Musobaqa oldi psixologik tayyorgarlikning tezkorlikka ta'siri.....	283
<a href="#">Sitara Elova Axmatkulovna</a>	



Pediatriya ta'limida sun'iy intellekt – talaba uchun virtual assistent.....	287
<i>Umarkulov Muhtorali Islomkulovich</i>	
Bo'lajak jismoniy tarbiya mutaxassislarida jismoniy savodxonlikni rivojlantirishning pedagogik asoslari.....	290
<i>Xakimov Xurshid Nozimovich</i>	
Сущность и виды познавательной активности детей 5–6 лет.....	294
<i>Джамилова Н. Н., Кудратова М. У.</i>	
Uzluksiz ta'lim jarayonida mustaqil fikrlovchi, ijodkor shaxsni tarbiyalashning pedagogik-psixologik masalalari.....	298
<i>Siddiqova Sanobar Xaydarovna</i>	
Ta'lim jarayonida o'quvchilarning bilish, ijodiy faolligini oshirish.....	301
<i>Siddiqova Sanobar Xaydarovna, Qushoqova Guzal</i>	
Badiiy adabiyotda Ibn Sino obrazining yaratilishidagi o'ziga xosliklar.....	304
<i>Tangirov A. J.</i>	
Ta'lim klasteri asosida zaif eshituvchi bolalarni inklyuziv ta'lim muhitiga moslashtirishning pedagogik mexanizmlari.....	309
<i>Dilnoza Xushvaktovna Ernazarova</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish.....	313
<i>Payzullaeva Gozsal Bayrambayevna</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarda pedagogik mas'uliyat ko'nikmasini rivojlantirishning nazariy-amaliy asoslari.....	317
<i>Maxramova Gulchexra Maxsudbek qizi</i>	
Maxsus ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalardan foydalanishning pedagogik samaradorligi.....	320
<i>Tashkenbayeva Dilafuz Baxtiyor qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirishga qo'yiladigan talablar.....	325
<i>Xazratkulova Shoiri Noraliyevna</i>	
Musiqi madaniyati darslarida multimedia vositalarida musiqa o'qituvchisining kompetensiyaviy tayyorgarligi.....	329
<i>Qudratova Elnoz Ismatilayevna, Ismailova Sevinch, G'olibnazarov Elmurod</i>	
Boshlang'ich ta'limda nutqiy kompetensiyani rivojlantirishning didaktik modeli.....	334
<i>Tillaboyeva Havasxon</i>	
Diskursiv yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq madaniyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish.....	340
<i>Boynazarova Nilufar Tilovmurot qizi</i>	
Millatlarning o'ziga xos dunyoqarashining psixologik xususiyatlari.....	346
<i>Murxashev Axmadxon Olimjon o'g'li</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarining intellektual-ijodiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik strategiyalari.....	349
<i>Ergasheva Sitora Baxriddin qizi</i>	
Sinergetik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashni takomillashtirish zarurati va imkoniyatlari.....	353
<i>Xo'shboqova Surayyo Baxtiyor qizi</i>	
Interfaol metodlar asosida o'smirlarda mustaqil tafakkurni rivojlantirish.....	357
<i>Ismoilova Mashxura Mashrabbek qizi</i>	
Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish.....	360
<i>Kuvanakova Guljaxon</i>	
The Role of Autonomous Learning in Developing English Language Proficiency of University Students in Uzbekistan.....	363
<i>Omonova Kamola, Mutabar Zikriddinova</i>	
Maktablarda fasilitator faoliyatini tashkil etish borasida ayrim mulohazalar.....	366
<i>Qahhorova Marjona Ixtiyor qizi</i>	
Модель и педагогические условия формирования профессиональных компетенций будущих учителей в области информационной безопасности.....	370
<i>Сагинбаева Кымбат Кенжегалиевна, Нуриддинова Майсара Икрамовна</i>	



Boshlang'ich sinf darslarida kreativ fikrlashni rivojlantirishda zamonaviy pedagogik metodlardan foydalanish.....	374
<a href="#">Xudoynazarova Muxlisa Bakhadirovna</a>	
Совершенствование методической компетентности будущих учителей начальных классов на основе креативного подхода .....	377
<a href="#">Дониёрова Лайло Худайбердиевна</a>	

# BOSHLANG'ICH TA'LIMDA NUTQIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK MODEL

Tillaboyeva Havasxon

Qo'qon universiteti "Ta'lim" kafedrasida o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada boshlang'ich ta'lim tizimida o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish masalalari didaktik yondashuv asosida tahlil qilinadi. Nutqiy kompetensiya tushunchasining mohiyati, uning tarkibiy komponentlari (lingvistik, kommunikativ, ijtimoiy-madaniy va pragmatik jihatlar) ilmiy-nazariy asosda yoritiladi. Shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlari inobatga olingan holda nutqiy faoliyatni shakllantirishga qaratilgan didaktik model taklif etiladi. Mazkur modelda maqsad, mazmun, metodlar, vositalar va natijalar o'zaro integratsiyalashgan sifatida qaraladi. Maqolada interfaol metodlar, innovatsion pedagogik texnologiyalar hamda kommunikativ yondashuv asosida nutqiy kompetensiyani rivojlantirishning samarali yo'llari yoritilgan. Tadqiqot natijalari boshlang'ich ta'lim jarayonini takomillashtirish va o'quvchilarning nutqiy faoliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so'zlar:** nutqiy kompetensiya, didaktik model, boshlang'ich ta'lim, kommunikativ yondashuv, nutq faoliyati, interfaol metodlar, pedagogik texnologiyalar, lingvistik kompetensiya.

**Abstract:** This article analyzes the development of students' speech competence in primary education based on a didactic approach. The essence of the concept of speech competence and its structural components (linguistic, communicative, socio-cultural, and pragmatic aspects) are revealed on a scientific and theoretical basis. Taking into account the age and psychological characteristics of primary school students, a didactic model aimed at developing speech activity is proposed. In this model, goals, content, methods, tools, and outcomes are considered as an integrated system. The article highlights effective ways of developing speech competence through interactive methods, innovative pedagogical technologies, and a communicative approach. The research results are important for improving the primary education process and enhancing students' speech activity.

**Key words:** speech competence, didactic model, primary education, communicative approach, speech activity, interactive methods, pedagogical technologies, linguistic competence.

**Аннотация:** В данной статье вопросы развития речевой компетенции учащихся в системе начального образования анализируются на основе дидактического подхода. Раскрывается сущность понятия речевой компетенции, а также её структурные компоненты (лингвистический, коммуникативный, социокультурный и прагматический аспекты) на научно-теоретической основе. С учётом возрастных и психологических особенностей учащихся начальных классов предлагается дидактическая модель формирования речевой деятельности. В данной модели цель, содержание, методы, средства и результаты рассматриваются как взаимосвязанная интегрированная система. В статье освещаются эффективные пути развития речевой компетенции на основе интерактивных методов, инновационных педагогических технологий и коммуникативного подхода. Результаты исследования имеют важное значение для совершенствования процесса начального образования и развития речевой деятельности учащихся.

**Ключевые слова:** речевая компетенция, дидактическая модель, начальное образование, коммуникативный подход, речевая деятельность, интерактивные методы, педагогические технологии, лингвистическая компетенция.

## KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning kommunikativ salohiyatini rivojlantirish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Xususan, boshlang'ich ta'lim bosqichida nutqiy kompetensiyani shakllantirish keyingi o'quv jarayonining samaradorligini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Chunki aynan ushbu davrda o'quvchilarda til birliklaridan ongli foydalanish, fikrni izchil va mantiqan ifodalash, muloqotga kirishish kabi ko'nikmalar shakllanadi. Shu bois nutqiy kompetensiya nafaqat lingvistik bilimlar majmui, balki shaxsning ijtimoiylashuvi va tafakkur rivoji bilan uzviy bog'liq kompleks hodisa sifatida qaraladi.



Bugungi kunda globallashtirish jarayonlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivoji hamda ta'limning kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilishi nutqiy faoliyatni rivojlantirishga yangicha yondashuvlarni talab etmoqda. O'quvchilarni faqat bilim bilan qurollantirish emas, balki ularni real kommunikativ vaziyatlarda samarali ishtirok etishga tayyorlash dolzarb vazifaga aylanmoqda. Shu nuqtai nazardan, boshlang'ich ta'limda nutqiy kompetensiyani rivojlantirishning ilmiy asoslangan, tizimli va integrativ didaktik modelini ishlab chiqish zarurati yuzaga kelmoqda.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, mavjud o'quv dasturlarida nutqiy kompetensiyani rivojlantirishga oid topshiriqlar hali to'liq darajada tizimlashtirilmagan bo'lib, ko'pincha reproduktiv xarakter kasb etadi va o'quvchilarning mustaqil fikrlashi hamda erkin nutqiy faoliyatini to'liq rag'batlantira olmaydi. Bundan tashqari, o'qituvchilarning metodik tayyorgarligida ham kommunikativ yondashuvni samarali qo'llash bilan bog'liq ayrim jihatlarni yanada takomillashtirish zarurati kuzatiladi. Bu esa nutqiy kompetensiyani rivojlantirish jarayonini didaktik jihatdan qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi.

Mazkur maqolaning maqsadi – boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan didaktik modelni nazariy jihatdan asoslash va uning tarkibiy komponentlarini aniqlashdan iborat. Tadqiqot davomida nutqiy kompetensiyaning mohiyati, tuzilmasi va rivojlanish mexanizmlari tahlil qilinadi hamda samarali pedagogik shart-sharoitlar yoritiladi. Ushbu yondashuv boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy faoliyatini faollashtirish, ularning muloqot madaniyatini shakllantirish va ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Pedagogik modellashtirish zamonaviy didaktikaning muhim ilmiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, u ta'lim jarayonini tizimli, prognozli va samarali tashkil etish imkonini beradi. Ilmiy adabiyotlarda "model" va "modellashtirish" tushunchalari turli yondashuvlar asosida izohlangan.

L. S. Vygotskiy pedagogik modellashtirishni bevosita termin sifatida keng qo'llamagan bo'lsa-da, uning sotsiokultural nazariyasi modellashtirishning metodologik asosini tashkil etadi. Olimning fikricha, ta'lim jarayoni ijtimoiy muhit va hamkorlik faoliyati orqali tashkil etiladi, bunda o'qituvchi tomonidan yaratilgan shartli "o'quv modeli" o'quvchining rivojlanish zonasini kengaytiradi. Vygotskiy "yaqin rivojlanish zonasi" konsepsiyasida shuni ta'kidlaydiki, o'quvchi bugun kattalar yordamida bajargan faoliyatini ertaga mustaqil amalga oshiradi. Demak, pedagogik modellashtirish bu jarayonda o'qituvchi tomonidan yaratilgan sun'iy didaktik muhit modeli orqali bilimni bosqichma-bosqich o'zlashtirish mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi.

Jerome Bruner ta'lim jarayonini modellashtirishda kognitiv va konstruktiv yondashuvni ilgari suradi. Uning fikricha, o'quv materialini samarali o'zlashtirish uchun bilimlar strukturaviy model asosida tashkil etilishi zarur. Bruner "spiral o'quv dasturi" konsepsiyasida har bir bilim elementi murakkablik darajasi oshib boruvchi model asosida qayta-qayta o'rganilishi lozimligini ta'kidlaydi. Shuningdek, u tomonidan ishlab chiqilgan "scaffolding" (qo'llab-quvvatlash) nazariyasi pedagogik modellashtirishning amaliy ko'rinishi bo'lib, unda o'qituvchi o'quvchiga vaqtinchalik yordam modeli yaratadi va asta-sekin uni mustaqil faoliyatga yo'naltiradi. Bu yondashuv pedagogik modellashtirishni bilimlarni tizimli tashkil etish va bosqichli rivojlantirish modeli sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Zamonaviy pedagog olimlar, jumladan, V. M. Basova, Y. M. Sartakova va boshqalar pedagogik modellashtirishni ta'lim jarayonining ilmiy loyihasi sifatida talqin qiladilar. Ularning fikricha, model – bu pedagogik jarayonning asosiy komponentlari va ular o'rtasidagi aloqalarni aks ettiruvchi nazariy konstruktsiya bo'lib, u kelajakdagi natijalarni oldindan bashorat qilish imkonini beradi.

Shuningdek, ular modellashtirishni quyidagicha tavsiflaydilar:

- pedagogik jarayonni tizim sifatida tasvirlash;
- uning tarkibiy qismlari (maqsad, mazmun, metodlar, vositalar, natijalar) o'zaro bog'liqligini aniqlash;
- ta'lim samaradorligini oldindan rejalashtirish va nazorat qilish vositasi sifatida qo'llash.

Mazkur yondashuv pedagogik modellashtirishni didaktik tizimni loyihalash va boshqarishning ilmiy usuli sifatida izohlaydi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish muammosi kompleks yondashuv asosida o'rganildi. Tadqiqotning metodologik asosini kompetensiyaviy, kommunikativ, faoliyatga yo'naltirilgan hamda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar tashkil etadi. Ushbu yondashuvlar o'quvchilarning nutqiy faoliyatini tizimli ravishda rivojlantirish hamda ularning kommunikativ salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot jarayonida nazariy va amaliy metodlar uyg'unligidan foydalanildi. Nazariy metodlar sifatida ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, umumlashtirish, taqqoslash va pedagogik modellashtirish usullari qo'llanildi. Xususan, nutqiy kompetensiya tushunchasining mohiyati va tarkibiy tuzilmasi yetakchi pedagog va lingvist olimlarning ilmiy qarashlari asosida o'rganildi. Pedagogik modellashtirish metodi orqali boshlang'ich ta'limda nutqiy kompetensiyani rivojlantirishning didaktik modeli ishlab chiqildi.


Amaliy metodlar doirasida kuzatish, suhbat, pedagogik tajriba elementlari hamda diagnostik baholash usullaridan foydalanildi. Kuzatish metodi orqali o'quvchilarning nutqiy faoliyati, ularning muloqotga kirishish darajasi va nutqiy faolligi o'rganildi. Suhbat metodi o'quvchilarning fikr bildirish ko'nikmalarini aniqlashga xizmat qildi. Shuningdek, pedagogik tajriba elementlari asosida taklif etilgan modelning samaradorligi tahlil qilindi.

Tadqiqotda diagnostik-baholash yondashuvi muhim o'rin egalladi. O'quvchilarning nutqiy rivojlanish darajasi maxsus mezonlar asosida baholandi. Jumladan, nutqiy faollik, fikrni ifodalash aniqligi va muloqotga kirishish qobiliyati asosiy ko'rsatkichlar sifatida tanlandi. Ushbu mezonlar asosida o'quvchilarning rivojlanish darajalari (past, o'rta, yuqori) aniqlanib, natijalar tahlil qilindi.

Mazkur metodologik yondashuvlar va usullar uyg'unligi tadqiqotning ilmiy asoslanganligini ta'minlab, boshlang'ich ta'limda nutqiy kompetensiyani rivojlantirish jarayonini tizimli o'rganish imkonini berdi.

### TAHLIL VA NATIJALAR

Quyida tadqiqotimizni asoslovchi model taqdim etiladi (1-rasm).



1-rasm: Boshlang'ich ta'limda nutqiy kompetensiyani rivojlantirishning didaktik modeli



Maqsadli blok didaktik modelning asosiy yo'naltiruvchi komponenti bo'lib, u ta'lim jarayonining umumiy strategik yo'nalishini, maqsad va vazifalarini hamda kutilayotgan natijalarni belgilaydi. Ushbu blok boshlang'ich ta'limda nutqiy kompetensiyani rivojlantirish jarayonining "nima uchun?" va "qanday natijaga erishish kerak?" degan asosiy savollariga javob beradi. Maqsadli blokning markazida boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutqiy kompetensiyani tizimli ravishda shakllantirish va rivojlantirish turadi. Bu jarayon o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini boyitish, fikrni aniq, izchil va mantiqan ifodalash, shuningdek, turli kommunikativ vaziyatlarda samarali muloqotga kirishish ko'nikmalarini rivojlantirishni nazarda tutadi.

Shu bilan birga, nutqiy kompetensiyani rivojlantirish orqali o'quvchilarning tafakkuri, ijtimoiy faolligi va shaxsiy rivoji ham ta'minlanadi. Mazkur blok doirasida aniq vazifalar ham belgilab olinadi. Jumladan, o'quvchilarning lug'at boyligini oshirish, grammatik jihatdan to'g'ri nutq tuzishga o'rgatish, tinglab tushunish va fikr bildirish ko'nikmalarini rivojlantirish, nutqiy faoliyatga motivatsiyani kuchaytirish kabi vazifalar asosiy o'rinni egallaydi. Bundan tashqari, o'quvchilarda kommunikativ madaniyatni shakllantirish, ya'ni suhbatdoshni tinglash, fikrni hurmat bilan ifodalash va ijtimoiy muloqot qoidalariga amal qilish kabi jihatlar ham maqsadli blok tarkibiga kiradi. Maqsadli blokda kutilayotgan natijalar kompetensiyaviy yondashuv asosida aniqlanadi. Ya'ni natijalar faqat bilim darajasi bilan emas, balki o'quvchining nutqiy faoliyatni amaliy qo'llash qobiliyati bilan baholanadi. Bu natijalar kognitiv (bilim va tushuncha), kommunikativ (muloqot ko'nikmalari) hamda ijtimoiy (nutq madaniyati va hamkorlik) komponentlar asosida namoyon bo'ladi.

Nazariy-metodologik blok didaktik modelning ilmiy poydevorini tashkil etadi va nutqiy kompetensiyani rivojlantirish jarayonining qanday nazariy qarashlar hamda metodologik yondashuvlar asosida tashkil etilishini belgilaydi. Ushbu blok ta'lim jarayonining mazmuni, metodlari va shakllarini tanlashda yo'naltiruvchi funksiyani bajaradi hamda modelning ilmiy asoslanganligini ta'minlaydi. Mazkur blokda, birinchi navbatda, zamonaviy pedagogik yondashuvlar tizimi aks etadi. Xususan, kompetensiyaviy yondashuv o'quvchilarning bilimni nafaqat egallashi, balki uni amaliy vaziyatlarda qo'llay olish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, nutqiy kompetensiyani shakllantirishning asosiy strategiyasini belgilaydi. Kommunikativ yondashuv esa tilni muloqot vositasi sifatida o'rganishni nazarda tutib, o'quvchilarning real nutqiy vaziyatlarda faol ishtirok etishini ta'minlaydi.

Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuvga ko'ra, nutqiy kompetensiya o'quvchilarning bevosita faoliyati jarayonida, ya'ni gapirish, tinglash, o'qish va yozish orqali shakllanadi. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv esa har bir o'quvchining individual xususiyatlari, qiziqishlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etishni nazarda tutadi. Shu bilan birga, nazariy-metodologik blokda didaktik tamoyillar muhim o'rin egallaydi. Tizimlilik tamoyili nutqiy kompetensiyani rivojlantirishni o'zaro bog'liq elementlardan iborat yagona tizim sifatida tashkil etishni talab etadi. Izchillik tamoyili o'quv materialining bosqichma-bosqich, oddiydan murakkabga qarab berilishini ta'minlaydi. Faoliyatlilik tamoyili o'quvchilarning faol ishtirokini, mustaqil fikrlashini va nutqiy faoliyatga jalb etilishini ko'zda tutadi. Interfaollik tamoyili esa o'qituvchi va o'quvchi hamda o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro muloqot va hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi. Individuallashtirish tamoyili har bir o'quvchining rivojlanish darajasi va imkoniyatlariga mos ravishda ta'limni tashkil etishni taqozo etadi.

Umuman olganda, nazariy-metodologik blok didaktik modelning ilmiy asoslarini aniqlab berib, nutqiy kompetensiyani rivojlantirish jarayonining samarali, tizimli va maqsadga yo'naltirilgan holda tashkil etilishiga xizmat qiladi.

Texnologik (jarayon) blok didaktik modelning amaliy qismi bo'lib, unda nutqiy kompetensiyani rivojlantirish jarayonining qanday tashkil etilishi, qaysi metodlar, vositalar va shakllar orqali amalga oshirilishi aniq belgilanadi. Ushbu blok "qanday o'qitiladi?" degan savolga javob berib, ta'lim jarayonining real mexanizmini ifodalaydi. Aynan shu bosqichda nazariy asoslar amaliy faoliyatga aylantiriladi va o'quvchilarning nutqiy rivoji bevosita ta'minlanadi. Mazkur blokning muhim tarkibiy elementi – o'qitish metodlaridir. Nutqiy kompetensiyani rivojlantirishda suhbat metodi o'quvchilarning erkin fikr bildirishiga, savol-javob asosida muloqotga kirishishiga xizmat qiladi. Muammoli ta'lim metodi o'quvchilarda mustaqil fikrlashni rag'batlantirib, nutqiy faoliyatni mantiqiy asosda tashkil etishga yordam beradi. Rol o'yinlari esa real hayotiy vaziyatlarni modellashtirish orqali o'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantiradi va ijtimoiy nutqiy tajribani shakllantiradi. Debat metodi esa o'z fikrini asoslash, himoya qilish va boshqalar fikrini tinglash madaniyatini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Texnologik blokda qo'llaniladigan vositalar ham nutqiy rivojlanishda muhim o'rin tutadi. Didaktik materiallar (matnlar, kartochkalar, topshiriqlar) o'quvchilarning nutqiy mashqlarini tizimli tashkil etishga xizmat qiladi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) va multimedia vositalari esa ta'lim jarayonini vizuallashtirish, interfaollikni oshirish hamda o'quvchilarning qiziqishini kuchaytirish orqali nutqiy faoliyatni yanada samarali rivojlantiradi. Shuningdek, ta'limni tashkil etish shakllari ham muhim ahamiyatga ega. Individual ish o'quvchining shaxsiy rivojlanishini ta'minlasa, juftlikda ishlash muloqot ko'nikmalarini shakllantiradi, guruhli ish esa hamkorlikda fikr almashish va jamoaviy nutqiy faoliyatni rivojlantiradi. Bu shakllar o'quvchilarning turli kommunikativ vaziyatlarda faol ishtirok etishiga imkon yaratadi. Bundan tashqari, pedagogik texnologiyalar texnologik blokning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Interfaol metodlar o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlab, nutqiy faollikni oshiradi. Loyiha metodi esa o'quvchilarning mustaqil izlanishi va natijani nutqiy shaklda taqdim etish

ko'nikmasini rivojlantiradi. STEAM elementlari integratsiyasi esa fanlararo bog'liqlik asosida o'quvchilarning ijodiy va mantiqiy nutqini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, texnologik blok didaktik modelning yuragi hisoblanib, unda nutqiy kompetensiyani rivojlantirishning samarali usullari, vositalari va shakllari uyg'un holda qo'llanadi hamda ta'lim jarayonining yuqori samaradorligini ta'minlaydi.

Tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar bloki didaktik modelning samarali ishlashini ta'minlovchi muhim omillar majmuasini ifodalaydi. Ushbu blok ta'lim jarayonini tashkil etishda zarur bo'lgan muhit, pedagogik imkoniyatlar va tashkiliy resurslarni qamrab oladi hamda nutqiy kompetensiyani rivojlantirish jarayonining muvaffaqiyatli kechishini ta'minlaydi. Mazkur blok "qanday sharoitda samaraga erishiladi?" degan savolga javob beradi. Avvalo, motivatsion muhit yaratish muhim shartlardan biri hisoblanadi. O'quvchilarda nutqiy faoliyatga nisbatan qiziqish va ichki ehtiyojni shakllantirish ta'lim samaradorligini oshiradi. Buning uchun darslarda qiziqarli topshiriqlar, hayotiy misollar, rag'batlantiruvchi baholash usullari va ijobiy psixologik muhitdan foydalanish zarur. Motivatsiyasi yuqori bo'lgan o'quvchi nutqiy faoliyatda faolroq ishtirok etadi va o'z fikrini erkin ifodalashga intiladi.

Ikkinchi muhim omil – kommunikativ vaziyatlarni tashkil etishdir. Nutqiy kompetensiya faqat real yoki sun'iy yaratilgan muloqot vaziyatlarida rivojlanadi. Shu sababli dars jarayonida dialog, munozara, rol o'yinlari, savol-javoblar kabi interfaol shakllar orqali o'quvchilarning nutqiy faoliyatini faollashtirish zarur. Bu esa o'quvchilarning ijtimoiy tajribasini boyitib, ularni turli kommunikativ vaziyatlarga moslashishga o'rgatadi.

Uchinchi shart – o'qituvchining metodik tayyorgarligidir. Nutqiy kompetensiyani rivojlantirishda o'qituvchining zamonaviy pedagogik texnologiyalarni bilishi, interfaol metodlardan samarali foydalanishi va kommunikativ yondashuvni amaliyotga joriy eta olishi muhim ahamiyatga ega. O'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki o'quvchilarning nutqiy faoliyatini tashkil etuvchi va boshqaruvchi subyekt sifatida faoliyat yuritadi.

To'rtinchi omil – o'quvchilar faolligini qo'llab-quvvatlashdir. Ta'lim jarayonida har bir o'quvchining faol ishtirokini ta'minlash, ularning fikr bildirishiga imkon yaratish, mustaqil va ijodiy yondashuvini rag'batlantirish muhimdir. Bunda differensial yondashuv, rag'batlantirish, ijobiy baholash va qo'llab-quvvatlash mexanizmlari alohida o'rin tutadi. Umuman olganda, tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar bloki didaktik modelning barqaror va samarali ishlashini ta'minlovchi muhim komponent bo'lib, u ta'lim jarayonining sifatini oshirish va o'quvchilarda nutqiy kompetensiyani rivojlantirishga xizmat qiladi.

Diagnostik-baholash bloki didaktik modelning ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, u nutqiy kompetensiyani rivojlantirish jarayonida erishilgan natijalarni aniqlash, tahlil qilish va monitoring qilishga xizmat qiladi. Ushbu blok orqali o'quvchilarning nutqiy rivojlanish darajasi muntazam ravishda baholanadi hamda ta'lim jarayoniga zarur tuzatishlar kiritish imkoniyati yaratiladi. Diagnostika nafaqat yakuniy natijani aniqlash, balki o'quv jarayonining har bir bosqichida rivojlanish dinamikasini kuzatish vositasi sifatida ham muhimdir. Mazkur blokda baholash mezonlari aniq ko'rsatkichlar asosida belgilanadi. Jumladan, nutqiy faollik darajasi o'quvchining dars jarayonidagi ishtiroki, fikr bildirishga intilishi va muloqotdagi faoliyati orqali aniqlanadi. Fikrni ifodalash aniqligi esa o'quvchining nutqida grammatik to'g'rilik, mantiqiy izchillik va mazmuniy aniqlik darajasi bilan baholanadi.

Muloqotga kirishish qobiliyati esa o'quvchining suhbatni boshlash, davom ettirish va suhbatdosh bilan samarali aloqa o'rnatish ko'nikmalari orqali aniqlanadi. Baholash jarayonida o'quvchilarning rivojlanish darajalari ham ajratiladi: past daraja (reproduktiv), o'rta daraja (qisman mustaqil) va yuqori daraja (ijodiy). Past daraja o'quvchining tayyor namunalar asosida nutqiy faoliyatni amalga oshirishi bilan tavsiflanadi. O'rta daraja o'quvchining ayrim vaziyatlarda mustaqil fikr bildira olishini, biroq hali yetarli darajada erkin nutqqa ega emasligini ko'rsatadi. Yuqori daraja esa o'quvchining nutqiy faoliyatda mustaqilligi, ijodiy yondashuvi va erkin muloqot qila olish qobiliyati bilan ifodalanadi. Umuman olganda, diagnostik-baholash bloki ta'lim jarayonining samaradorligini aniqlash, o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish darajasini baholash hamda pedagogik faoliyatni takomillashtirish uchun muhim vosita hisoblanadi.

Natijaviy blok didaktik modelning yakuniy samaradorligini aks ettiruvchi komponent bo'lib, nutqiy kompetensiyani rivojlantirish jarayonida erishiladigan asosiy natijalarni ifodalaydi. Ushbu blok modelning amaliy ahamiyatini namoyon etib, ta'lim jarayonining qanchalik samarali tashkil etilganligini ko'rsatadi.

Mazkur blokda, avvalo, o'quvchilarda rivojlangan nutqiy kompetensiyaning shakllanishi asosiy natija sifatida qaraladi. Bu o'quvchilarning til birliklaridan ongli va to'g'ri foydalanish, turli kommunikativ vaziyatlarda mos nutqiy strategiyalarni qo'llay olish qobiliyatini anglatadi. Shuningdek, o'quvchilarda erkin va mantiqiy nutq shakllanadi, ya'ni ular o'z fikrini izchil, aniq va asosli tarzda ifodalashga erishadilar.

Natijaviy blok doirasida kommunikativ madaniyatning shakllanishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu o'quvchilarning muloqot jarayonida etik me'yorlarga rioya qilishi, suhbatdoshni tinglay olishi, fikrga hurmat bilan yondashishi kabi jihatlarni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, nutqiy kompetensiyaning rivojlanishi o'quvchilarda mustaqil fikrlash ko'nikmasining shakllanishiga ham olib keladi. Ular muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish, o'z nuqtai nazarini asoslash va ijodiy yondashuvni namoyon etishga qodir bo'ladilar.



## XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur maqolada boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishning didaktik modeli nazariy va amaliy jihatdan asoslab berildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, nutqiy kompetensiya ko'p komponentli tizim bo'lib, uning samarali shakllanishi maqsadli, tizimli va ilmiy asoslangan yondashuvni talab etadi. Shu nuqtai nazardan, ishlab chiqilgan didaktik model maqsadli, nazariy-metodologik, mazmuniy, texnologik, tashkiliy-pedagogik, diagnostik va natijaviy bloklarning o'zaro uzviy bog'liqligi asosida qurildi.

Tahlillar natijasida aniqlanishicha, nutqiy kompetensiyani rivojlantirishda kommunikativ va faoliyatga yo'naltirilgan yondashuvlar, interfaol metodlar hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarning nutqiy faolligini sezilarli darajada oshiradi. Shuningdek, motivatsion muhit yaratish, kommunikativ vaziyatlarni tashkil etish va o'qituvchining metodik tayyorgarligi model samaradorligini ta'minlovchi muhim omillar sifatida namoyon bo'ladi.

Diagnostik-baholash mexanizmlari orqali o'quvchilarning nutqiy rivojlanish darajasini aniqlash va monitoring qilish imkoniyati yaratiladi, bu esa ta'lim jarayonini takomillashtirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Natijada o'quvchilarda erkin, mantiqiy va izchil nutq, kommunikativ madaniyat hamda mustaqil fikrlash ko'nikmalari shakllanishi ta'minlanadi.

Umuman olganda, taklif etilgan didaktik model boshlang'ich ta'limda nutqiy kompetensiyani rivojlantirishning samarali vositasi sifatida xizmat qilib, ta'lim sifatini oshirish va o'quvchilarning shaxsiy hamda ijtimoiy rivojlanishini ta'minlashga muhim hissa qo'shadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Vygotsky L. S. *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978. – 159 p.
2. Bruner J. *The Process of Education*. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1960. – 97 p.
3. Chomsky N. *Aspects of the Theory of Syntax*. – Cambridge, MA: MIT Press, 1965. – 251 p.
4. Hymes D. *On Communicative Competence // Sociolinguistics*. – Harmondsworth: Penguin Books, 1972. – P. 269–293.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №5(1)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.